

Dunyo tasavvuridagi O‘zbekiston!

Berdiyeva Jayron Merdan qizi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika fakulteti 4-kurs talabasi

Ziyo Forum ilm-fan va ta’lim tarbiyani rivojlantirish xalqaro fondi

“Avlod Media” proyeksi jurnalisti

Annotatsiya: Ushbu maqola davomida O‘zbekistonning o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida haminqadar so‘z boradi. Bundan tashqari yurtimiz bugungi istiqbolli davrdagi Yangi O‘zbekistonning ta’rifi keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, Buxoro, Xiva, “vixara”, “Buxoroi sharif, urbanizatsiya darajasi, o‘shish koeffitsiyenti, aholi qatlami, statistika, “Harakatlar strategiyasi” va h.klar.

O‘zbekiston davlati va madaniyati, aholisi, joylashuvi, turli noz ne‘matlari haqida dunyoning qaysi burchagida so‘z yuritilmasin ular ko‘z o‘ngida “O‘zbekiston” nomi tilga olinishi bilan eng birinchi dunyoni lol qoldirgan bir-biridan go‘zal shaharlarimiz: Samarqand, Buxoro, Xiva paydo bo‘ladi. Ushbu shaharlar asrlar osha o‘z salobatini yo‘qotmayotganligi, nafisligi, qurilish uslubi hamda takrorlanmas naqshlari bilan butun jahon nigohida hali-hanuz mo‘jizadek ko‘rinadi.

Samarqand - dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biri bo‘lib, taxminan 2750 yillik tarixga ega. Hozirgi Samarqand o‘rnida miloddan avvalgi IV asrdan milodiy VI asrgacha So‘g‘d davlati poytaxti Maroqanda mavjud bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida shu ma’lum bo‘lganki, Samarqand shahrida yuqori paleolit davrida ham odamlar yashagan. Amir Temur imperiyasining poytaxti sifatida Samarqand butun dunyoda shuhrat topdi.

Buxoro - jahonning eng qadimiy va tarixiy-me’moriy obidalarga boy go‘zal shaharlaridan biri bo‘lib, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo‘lgan. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Ko‘plab tarixchilar, tilshunoslar fikricha, Buxoro so‘zi qadimgi hind – sanskrit tilidagi “vixara” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “qal’a” ma’nosini anglatadi. Qadimda shahar **Numijkat va Faxira**, deb ham atalgan. Bu shaharning har bir go‘shasida – boy tarixga ega minoralari, osori- atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida



olis o‘tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. VIII asrda mintaqaga islom dini kirib kelishi ortidan Buxoro asta-sekin eng muhim diniy markazga aylanib, islom olamida sharif sanaladigan to‘rtta shahardan biriga aylangan. **“Buxoroi sharif”**dan butun jahon tan olgan buyuk olimlar, mutafakkir va donishmandlar yetishib chiqqan.

Xiva - Dunyoning qadimiy shaharlaridan biri, xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz **“ochiq osmon ostidagi muzey”** sifatida e‘tirof etilmagan. Shahar hududida miloddan avvalgi VI – V asrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrlarga taalluqli 122 dan ortiq arxeologik yodgorliklar va me‘moriy obidalar saqlanib qolgan va ular Davlat muhofazasiga olingan. Ayniqsa Xiva shahrining Ichan-Qal‘a qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan bir butun boshli shahar-yodgorlik bo‘lib, uning o‘tmishidagi taqdiri, me‘moriy obidalari dunyoning eng qadimgi madaniy vo‘ha - Xorazmning tarixiy, madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Xiva shahri 1990 yil 12 dekabrda YuNESKOning Kanadada bo‘lib o‘tgan 14 sessiyasining maxsus qarori bilan Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib **“Butun jahon merosi”** sifatida ro‘yxatga olingan. 1997 yilda mamlakatimizning ikki azim va buyuk shahri **Buxoro va Xivaning 2500** yillik yubileylari YuNESKO rahnamoligida dunyo miqyosida keng nishonlanishi bu shaharlarning butun dunyoda e‘tirof etilganidan dalolat beradi. Nechi ming yillik tarixga ega shaharlarimiz bilan birgalikda, yurtimiz tarixida dunyo ilm-fan tarqqiyotiga mislsiz xissa qo‘shgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning im-fan rivojiga qo‘shgan hissasi hali-hanuz dunyoning eng mashhur olimlari uchun ensiklopediya vazifasini o‘tamoqda. Bugungi kunga kelib O‘zbekiston kundankunga o‘zgarib ko‘rkam va so‘lim go‘shalari bilan birgalikda davlatning urbanizatsiyalashish darajasi hamda aholining o‘shish suratlari kundankunga ko‘tarilib bormoqda. Aynan hozirgi kundagi O‘zbekiston joylashuv jihatidan Markaziy Osiyodagi eng ko‘p aholi soni - 2024 yilning 1 oktyabr holatiga ko‘ra 37,4 mln kishini bilan birinchi o‘rinni egallab turibdi. Har yili yurtimizga turistik maqsadlari bilan dunyo mamlakatlaridan tashrif buyuruvchi insonlar soni oshganidan – oshib bormoqda. Xususan, aynan yaqin ikki yil ichida turistlar soni: statistika agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra esa 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 6,6 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-iyul oylarida jami 4,2 milliontani tashkil etgan. Ma‘lumotlar hajmi yil yakuniga kelib o‘zgarishi mumkin.



O‘zbekiston bugungi qiyofasi hamda madaniyati bilan uyg‘un holatda uning ko‘pmillatli xalqi, ham milliylikni ham zamonaviylikni o‘zida mujassamlashtirgan shaharlari timsolida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Uzoq emas yaqin o‘n yil ichida O‘zbekistonning iqtisodiyotidan tortib, qishloq xo‘jaligi sanoatigacha juda katta o‘zgarishlar amalga oshirilib, rivojlanish koefittsiyenti sezilarlicha ko‘tarildi. Respublikaning janubiy viloyatlari Surxondaryo, Namangan, Andijonda dala ekinlari hamda unumli yerlari bilan qishloq xo‘jaligining juda katta qismini oziq-ovqat va sabzavotlar bilan ta‘minlaydi. Respublikaning shimoliy qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlari bo‘lsa, paxta, tuz, baliq hamda boshqa ko‘plab mahsulotlar bilan ta‘minlaydi. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **“Harakatlar strategiyasi”** doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Qaror ijrosi doirasida yurtimizdagi ancha sohalar xususan, fan-ta‘lim, ijtimoiy, iqtisodiy, qishloq xo‘jaligi, madaniyat va san‘at, sog‘liqni saqlash hamda sport tizimlarida anchayin sezilarli, o‘zgarish va ko‘zga ko‘rinarli muvaffaqiyatlar amalga oshirildi.

Islohotlar natijasi o‘laroq qaysi sohani olib qaramang O‘zbekiton bugun dunyo miqyosida Rivojlanish drajasi sezilarli darajada ko‘tarilgan davlatlar qatoriga kiritiladi. Maqolaning oxirida shuni ta‘kidlamoqchimaki, butun dunyo nafaqat qardosh xalqlar va qolgan barcha millat va elatlarning qaysidir jihati bilan ko‘zga tashlanuvchi, insonlar ongida fikr va tasavvur hosil qiluvchi belgilari mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham biz, Amerika deganda **“Osmono‘par binolarni”**, Rossiya deganda **“Sovuq ob-havoni”**, Belgiya deganda **“Shokoladni”**, Birlashgan Arab Amirliklari deganda **“Makkai Madinani”** va O‘zbekiston deganda qadimiy va go‘zal shaharlarni hamda bugungi zamonaviy rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqori davlatni ko‘z oldimizga keltiramiz. Fayzli va barakali O‘zbekistonimizni qancha ko‘p ta‘riflasak ham shuncha kamdek ko‘rinaveradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/samarqand-tarixi>
2. <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/o-zbekistonning-madaniy-merosi-registon-maydoni/>
3. <https://yuz.uz/uz/news/buxoro--qadim-madaniyat-va-ilm-fan-ochogi>
4. <https://khivamuseum.uz/uz/ichon-qala-haqida>
5. <https://stat.uz/uz/>
6. <https://lex.uz/docs/-5841063>



Research Science and Innovation House

